

DEYKSIS VA UNING LINGVISTIK MOHIYATI

Haydarova S. M.¹

Annotatsiya:

Deyksisni va uning zamonaviy tilshunoslikdagi ahamiyati tilshunoslarni yanada mukammalroq o'rganishga kundan-kunga jalg etib bormoqda va shu sababli ushbu maqolada bu tushunchaning umumiy mohiyati, uning tilshunoslik nazariyasida o'rganilish darajasi, shuningdek, uning matnda tutgan o'rni haqida bat afsil to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, kontekst, ishora, pragmalingvistika, nutq, joylashuv, matn, deyktik, makon, zamon.

doi: <https://doi.org/10.2024/5yr7qmo4>

Deyksis yunoncha so'zdan olingen bo'lib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda "ko'rsatish, ishora" kabi ma'nolarni beradi. Hozirgi kunda tilshunoslikda kommunikativ diskurs ishtirokchilari hamda ularning ijtimoiy mavqeい, emotsiyal holati, makon va zamonda voqelanishi, kabilarga til birliklari yoki boshqa belgilar orqali ishora qilish deyksis hodisasi mazmunida vujudga keladi. Boshqacha aytganda, deyksis leksik va grammatik vositalarning ishora qilish vazifasini anglatuvchi tushuncha sifatida nutqiy harakat ishtirkchilari hada gapning tarkibiy qismlarini denotativ mazmun-mohiyatining ahamiyatligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Deyksis kommuniktaiv-pragmatik hodisa sifatida nutqning shakllanishi va tinglovchiga to'g'ri yetkazilishida muhim ahamiyatga ega. Nutqning ishora qilish, havola qilish vazifasini bajaruvchi til birliklarisiz, ya'ni deyktik birliklarsiz samarali kechishi mushkul.

Qadimdan ingliz tilshunosligida ko'rsatish olmoshlari demonstrative atamasi bilan belgilangan. Davr o'tishi bilan "deyksis" tushunchasi yanada kengroq ma'noda ishlatila boshlandi va uning tarkibiga kishilik olmoshlari ham kiritildi. F. Lenz o'zining "Deictic conceptualisation of space, time and person" nomli maqolasida deyksis atamasiga quyidagicha izoh bergan: «Deyksis – universal hodisa hisoblanadi. Har bir til ko'plab deyktik iboralariga ega bo'lib, ulardan ko'pchiligi tez-tez qo'llaniladi hamda yuqori ravishda grammaticalashtirilgan» [Lenz, 2003:VII]. Deyktik iboralar «kommunikatsiya faoliyatining aspektlari»ga, «ekstralalingvistik kontekstning xossalari»ga hamda «fikr konteksti yoki nutq faoliyatining xususiyatlari»ga aniq manba yordamining qo'llanilishisiz ifodalana olmaydi.

Deyksis tizimining markazida nutq ijodkori, ya'ni so'zlovchi shaxs turadi va uning makon va zamonda o'rin olishi boshlang'ich nuqta bo'lib qoladi. Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan gapirganda, deyksis diskurs darajasida o'rganilishi kerak hamda «havolaning maxsus holati» sifatida e'tirof etilishi mumkin.

J. Layonz talqinida shaxs kategoriysi nutq vaziyati qatnashchilari bajaradigan vazifalar vositasida aniqlanadi: "birinchi" shaxs so'zlovchi tomonida o'ziga nisbatan muloqot sub'ekti vazifasini bajarayotganligini ko'rsatish uchun qo'llanadi; "ikkinchi" shaxs tinglovchini ko'rsatuvchi belgidir; "uchinchi" shaxs esa so'zlovchi va tinglovchidan o'zgalarni ajratish uchun qo'llanadi [Lyons, 1975:66].

Deyksis nutqda til birliklarining ishoraviylik xususiyatni namoyon qiluvchi hodisadir. Ko'rsatish vazifasini lingvistik va ekstralalingvistik vositalar orqali bajaruvchi deyksis tilning

¹ Haydarova S. M., SamDChTI magistranti

belgilar tizimi sifatida shakllanishida muhim rol bajaradi. Deyksis nazariyasi tahlliga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlardi asosiy e'tibor deyksis va anafora munosabati masalasiga qaratiladi. Bu kabi tadqiqotlarda real diskurs jarayonida nutq ishtirokchilariga ishorani anglatuvchi deyksis sof, asl deyksis sifatida tavsiflansa, matn qismlarga ishora qilish orqali ularning semantik-sintaktik jihatdan bog'lanishmga hizmat qiluvchi deyksis atamasi anafora sifatida ta'rif qilinadi.

Deyksis nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri deyktik deyktik birliklardir. Nutq(matn) tarkibida "ishora qilish" vazifasini bajaruvchi birliklar ob'ektni bevosita izohladigan nominativ birliklardan farqli o'laroq nutqiy holatga yoki so'zlovchi tomonidan belgilangan muayyan mo'ljal markaziga nisbatan ob'ektni tavsiflaydi.

Har bir tilda deyksis va uning turlarini yuzaga keltiruvchi maxsus til birliklari mavjud. Shunga qaramay, ba'zan nutq jarayonida muayyan narsa-predmet, voqe-hodisaga ishora qilish vazifasi ekstralengvistik vositalar orqali ham amalag oshirilish mumkin.

Deyksis hodisasi tadqiq etilgan ishlarda tilning ishora qilish birliklari sifatida O.Espersen ishora birliklariga shifter atamasini, Ch.Pirs deyktik birliklarni indeksallangan belgilar [Pirs, 2000:45], Ye.V. Paducheva esa ishoraga to'g'ridan-to'g'ri mazmun belgilovchi egotsentrik birliklar [Падучева, 1985:34] sifatida talqin qilishgan.

J.Layonzning «Semantics» asarida deyksis muammosi yanada mufassalroq o'rganilgan [Lyons, 1977:636]. Ushbu asarda muallif yuqorida eslatilgan masalalardan tashqari aniq artiklli ot birikmasi, deyksis va anafora munosabati, matn deyksisi, zamon va makon mazmunidagi tuzilmalar tarkibidagi deyktik bo'laklar kabi qator masalalarni ham muhokama qiladi. Xuddi shu yerda keyinchalik boshqa tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda takrorlanayotgan deyksis hodisasining ta'rifi berilgan: "Hech bo'limganda bir so'zlovchi va tinglovchi ishtirokini talab qiladigan muloqot vaziyatida yuzaga keladigan zamon-makon matnida namoyon bo'ladigan shaxs, predmet, hodisa, harakatlarni belgilovchi, ularning o'rnini ko'rsatuvchi birlik deyksis deb talqin qilinadi".

Tilning deyktik vositalari (leksik va grammatik) til belgisining nominativ va referentsial funktsiyalari munosabatini simvolik maydonga qarama-qarshi qo'yilgan tilning ko'rsatish maydoinin shakllantiradi. P.Stroson tomonidan taklif qilingan chegaralangan til tipining semantik lug'ati tasniflanishiga ko'ra deyktik elementlar uchta asosiy sinflardan birini shakllantiradi. Bunga ko'ra nomlanishiga, ummuyl xarakteristikasiga va munosabatlariga ko'ra. Deyktik elementlar shakllangan til tiplari uchun quyidagi turlarga bo'linadi: temporal, lokativ, interlokativ va kontekstual. B.A. Serebrinnikovning so'zlariga ko'ra "deyksis inson nutqidagi muhim atribut hisoblanadi [Серебренников, 1988:27]. Bo'lishsiz predmetlar dunyosida deyktik vositalar mavjud emas, chunki ularga u yerda hojat yo'q. Predmet boshqa predmetlar orasida o'zining joylashuv yoki ajratilishga nisbatan ko'rsatish mazmuniga bog'liq bo'lganida o'zining xossalalarini o'zgartirmaydi". Inson uchun deyksis hodisasi nutqda orientatsiya uchun zarur bo'ladi. Deyktik vositalardan mahrum bo'lgan nutq suhabatdosh uchun mutlaqo tushunarsiz bo'lish ehtimoli bor.

Til belgilarini ikki guruhg'a bo'lish mumkin: 1) nominatsiyani amalga oshiruvchi "yorliqlar" (misol sifatida, table so'zi), 2) diqqatni faqat ob'ektga yo'naltirib, "ko'rsatgich"lar rolidagi so'zlar. Ingliz tilida bu kabi ko'rsatgichlar tarkibiga kishilik, egalik olmoshlari, makon va zamonni ifodalovchi olmosh ravishlar, ko'rsatish olmoshlari kiradi.

Xulosa qilib aytganda, deyksis til tizimining bir qismi bo'lib, nutqiy jarayonda muloqotni osonlashtiradi. Deyksislardan turli kontekstlarda turlicha ma'no ifodalaydi. Tilshunoslar deyksisning turli xususiyatlarini o'rganib, uni til tizimi va kontekst o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi hodisa sifatida talqin qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Lenz F. *Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person // Deictic Conceptualisation of Space, Time and Person.* – Amsterdam / Philadelphia.: John Benjamins Publishing Company, 2003. – P. VII.
- [2]. Lyons J. *Semantics.* – Cambridge: CUP, 1977. – P.636.
- [3]. Lyons J. *Deixis as the source of reference // Formal semantics of natural language: Papers from a Colloquium sponsored by King's college research centre, Cambridge.* – Cambridge Univ. Press, 1975. – P. 61-83.
- [4]. Shermatov A.A. *Ingliz va o'zbek badiiy matnlarida diskurs deyksisining qiyosiy tahliliga doir ayrim mulohazalar // Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar va ularning muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari, Toshkent, 2013.* – B.234.
- [5]. Падучева Е. В. *Высказывание и его соотнесённость с действительностью.* – М., 1985, – 188с.
- [6]. Пирс Ч.П. *Начала прагматизма.* -СПбГУ; Алетейя, 2000. - 352 с.
- [7]. Серебренников Б. А. *Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление.* - М.:Наука, 1988. - 242 с
- [8]. Шерматов, А. "Илмий матнларда дейктик ҳаволаларнинг прагматик хусусиятларига доир." *Иностранная филология: язык, литература, образование* 3.3 (2018): 68.